

BUYUK FAYLASUFLAR HAYOTI VA IJODI.

SHOMURODOVA SOXIBA SATTOROVNA
BUXORO VILOYAT KOGON TUMAN 1-DMTT TARBIYACHISI
BUXORO PISIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI
TALABASI

ANNOTATSIYA

Yurtimiz mustaqilligi ulug' ne'mat shu nematdan unumli foydalanish, biz ustozlar, o'sib kelayotgan yosh avlodni yurtimizga hissasi tegadigan farzand qilib tarbiyalash burchimiz bu burchni ado etish uchun buyuk siymolar, faylasuflar ijodlaridan foydalanish maqsadga movfiq.

KALIT SO'ZLAR. Ulug' ne'mat, unumli tarbiyalash, buyuk siymolar, faylasuflar, foydalanish, maqsadga movofiq.

KIRISH.

Buyuk siymolardan ko'plab bobokalonlarimiz yashab o'z bilimlarini avlodlarga qoldirib ketishgan bu bilimlarni asrash kelajak- avlodga yetkazishi miz muhim, yurtini sevgan har bir farzand yurtiga hissa qo'shishni istaydi va bu yo'lda harakatda davom etadi, men ham yurtimni gullab yashnashi xalqimiz faravon hayot kechirishi uchun hissamni qo'shish naqadar baxt ekanligini bu imkoniyat menga berilganidan ollohga shukronalik keltiraman va ajdodlarimiz asarlarini, ijodlarini yoshlarga yetkazishga harakat qildim bunda buyuk siymolarga Jalolidin Rumi, Farobiy [Abu Nasr ibn Muhammad ibn tarxon ibn o'zlug' al Forobiy at-Turkiy], Abulqosim Firdavsiy, Ibin Sino Abul Ali Xusayn ibn Abdulla ibn Xasan ibn Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Abuhmid Muhammad al G'azzoliy.



JALOLIDIN RUMIY

[1207-1273]

Jaloliddin Rumi Balx shahrida tug'ilib o'sdi. Uni bazan Jaloliddin Balxiy deb ham ataladi.

Rumi shariyatning barcha shakllarida mukammal ijod qildi. U bitgan g'azallari, ruboiylar va masnaviylar shariyat bo'stonining durdonasiga aylangan. Rumi asarlarida tashbehlarga o'ralgan falsaviy, so'fiyona, teran g'oyalarga keng o'rin berilgan.

\\ \\

Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngil

\\ \\

O'limdan so'ng meni qaro yer emas, ma'rifatli insonlarning qalbidan izlang

\\ \\

Ezgulikdan bir qal'a barpo aylangkim, maxkamlikda anga hech narsa teng bo'lolmas.

\\ \\

Bu olam bir boru bir yo'q. Asta –asta ketganlar-yo'q, asta-asta keluvchilar bor.

\\ \\

Ayo sarv Yuksaklarga intilmoqni bizga ham o'rgat.

\\ \\

Ey, g'uncha o'zligingni namoyon etmoqni o'rgat.

UZUM HAQIDA MASAL

Bir-birini tushunmaslik do'stini dushmanga aylantirishi haqida Rumiyning shunday masal bor.

Turli tilda turlicha aytilgan bir so'z ba'zan o'zaro nizoga sabab bo'ladi. Turk, arab, fors va yunon millatidan bo'lgan to'rt nafar yo'lovchiga bir saxiy odam tanga hadya etadi. Yo'lovchilar o'rtasida tangani qanday sarflash borasida janjal chiqadi. Forsiy tilda so'zlovchi yo'lovchi sheriklariga;

-Yuringlar, bozorga boramiz-da, angur sotib olamiz, -deydi.

-Ey firibgar – uning so'zini bo'ladi arab-Men angur emas. Eynab yeyishni xoxlayman.

Turkiy yo'lovchi esa ularning har ikkisiga etiroz bildirib , shunday deydi ;

-Birodarlar nega shovqin ko'tarasiz , balki bu pulga uzum sotib olarmiz.

Yunonistonlik yo'lovchi esa;

-Qanday odam siz o'zi. Kelinglar, stafil sotib olamiz-da , mazza qilib yeymiz,- deydi.

Shu tariqa to'rt yo'lovchi bir-birini tushunmay, janjallashib qoladilar. Aslida ular bir narsani istashadi.

To'rt yo'lovchi bilimsizlik, nodonlik tufayli bir-birlarini rosa do'poslashadi.

Agar ularning orasida yuz tilni biladigan odam bo'lganida bir so'z bilan nizoga chek qo'yishi mumkin edi.

DEHQON VA SHER

Bir kuni tunda sher dehqonning o'g'ilxonasiga kirib, sigirini yebdida, o'sha yerning o'zida dam olgani cho'zilibdi. Dehqon esa tunda uyg'onib, shamni ham yoqmasdan sigiridan xabar olish uchun o'g'il xonaga yo'l olibti. U o'g'il xonaga kiribtida , paypaslanib sherning yelkasini silabti. SHunda sherning xayolidan shunday so'zlar o'tibti. „Eh , ikki oyoqli nodon-a U meni sigir den o'yladi .Kunduz kuni bo'lganda meni ko'rib , tanamga qo'l tekkizishga uyoqda tursin , qo'rqqanidan o'takasi yorilardi”

Ey dono odam , sen eng avvalo narsalarning mohiyatini bil , ularning aldamchi shakliga ishonma.

So'z- libos . Ma'no shu libos ostiga yashiringan sir.

Ko'zguda hamma narsa teskari ko'rinadi. Ammo biz ko'zgunsiz o'zimizni hechqachon ko'rolmagan bo'lardik.

Sen menga so'z ojiz, deding. Agar o'zingni haq deb bilsang, u holda so'zning ojizligi haqidagi so'zlaring ham ojizdir.



IBN SINO

Abu Ali Xusayn Ibn Abdullah Ibn Hasan Ibn Ali Ibn Sino.
[980-1037]

Buyuk hakim , olim va faylasuf ibn Sino Buxoro shahri yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ildi. U 19 yoshiga to'lganda ona shahri Buxoroni qoraxoniylar bosib oladilar. Bosqinchilar shaharni butunlay vayron qilib , ko'plab ma'daniy boyliklarni yo'qotib yuborishdi. Bu vaqtga kelib, ibn Sino iste'dodli hakim va faylasuf sifatida tanilib bo'lgandi. Ko'p o'tmay SHarqda uni „SHayx ar- rais”. Ya'ni „Donishmandlar yetakchisi” deb atay boshladilar.

Ibn Sino juda ko'p mutolaa qiladi. U ilm cho'qqilariga mustaqil o'qib – o'rganish yo'li bilan yetib boradi. Bu haqda allomaning o'zi shunday deydi; „O'n yoshimda quronni o'rgandim, badiiy adabiyotlani o'qib chiqdim. Keyen mantiq ilmiga oid kitoblarni mutolaa qilib, mustaqil ravishda bu ilimning nozik qirralarini o'zlashtira bildim. SHundan so'ng tibbiyot ilmiga murojat qilib, ko'plab kitoblarni o'qishga tutundim. Qisqa vaqt ichida mening tibbiyot sohasidagi bilimlarim va davolash san'atim shunday sarhadlarga yetdiki , o'sha davrning eng hurmatli hakimlari mening huzurimga maslahad so'rab kela boshladilar . Men hakimlik amalyoti bilan tinmay shug'ullandim va nihoyat menga insonlarni davolash ilmining

darvozalari keng ochildi. Bu vaqtda endi 16 yoshga to'lgandim. Anashu yoshimda tunlari uyqu, kunduzlari halovat neligini bilmay faqat ilim bilan mashg'ul bo'ldim, inson tabiati o'z bilimlarini mustahkamlash va ilm yo'lida olg'a borishga qay darajada qodir bo'lsa, men ham shu darajada harakat qildim, ter to'kdim''.

Ibn Sinoning falsafiy jihatdan shakllanishi oson kechmadi. U bir tasodif tufayli falsafa olamiga kirib bordi. Bu haqda o'zi shunday yozadi. "Arastuning „Metafizika" asarini o'qib chiqdim. Ammo muallifning maqsadi men uchun jumbog'ligicha qoldi. Asarni to yod bo'lguncha qayta-qayta o'qidim. Lekin baribir hech narsaga tushunmadim. Bir kuni muqovasozlar bozoridan o'ta yotib, bir savdogarning o'z kitoblarini maqtayotganlarini eshitib qoldim. Do'konga yaqin bordim. Savdogar menga kitoblaridan birini ko'rsatdi. Bu Abu Nasr Forobiyning „Metafizikaning asosiy qoidalari" deb nomlangan asari edi. Men jahll aralash bu tushunarsiz ilmdan hech qanday foyda yo'qligini aytib, kitobni rad etdim. Sotuvchi qo'yarda-qo'ymay kitobni arzon bahoda sotib olishga undardi. Axiyri kitobni bor-yo'g'i uch dirhamga sotib oldim. Uyga qaytib, kitobni mutolaa qilishga kirishdim; U menga o'z sirlarini ochdi va men falsafaga oid barcha savollarga javob topdim''.

\\ \\ \\

Donishmandlik bizga hayot so'qmoqlarida ulug' saodatni hozirlab inom etuvchi vositadir.

\\ \\ \\

Barcha fanlarning asosiy qonun-qoidalari metafizikaga asoslanadi [metafizika tabiatdan tashqaridagi hodisalar haqidagi fan]. Garchi uni eng keyin o'rgansalar-da, aslida u birinchi o'rinda turadi.

\\ \\ \\

Rux –abadiy. U jisim bo'lgandan keyin ham mavjud bo'lib qolaveradi.

\\ \\ \\

Rux-jismga bog'liq bo'lmagan ravishda mustaqil fikirlaydi.

\\ \\ \\

Tiriklik jismning idrok va harakatga ega bo'lmog'i demakdir.

\\ \\ \\

Aql tarozisiga tortib ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir. Shu bois mantiq ilmini o'rganmoq juda muhim.

\\ \\ \\

Hakimning uch quroli bor; so'z, giyoh va tig'.

\\ \\ \\

CHala bilim egasi bo'lishdan ko'ra, bilimsizlik afzaldir.

Ruh- shamchiroqqa , bilim-ana shu shamchiroqdan taralayotgan yog'duga, Allohning zakosi-moyga o'xshaydi. SHamchiroq yonishdan to'xtamas ekan- sen tiriksan. Agar u o'chsa - sen halok bo'lasan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Nashr qilingan asarlari

Jalolidin Rumi asarlari jahonning ko'p tillarida tarjima qilingan, „Masnaviy ma'naviy“ va „Fihi mo fihiy“ning Usmonli turkcha tarjimalari mavjud. „Fihi mo fihiy“-„Ichindagi ichingdadir“ nomi bilan, olim Ulig'bek hamdamov tomonidan turkchadan o'zbekchaga tarjima qilingan.

Ibn Sino. Donish noma.

Donishnomalik kitobi . Stalinabad, 1957.

Ibn Sino. Tibbiyot fani qonuni; V5t.-Toshkent, 1956-1960.

Ibn Sino Matematik satirlar „Donishmandlik kitobi“ Dushanbe.1967.

Al-Beruniy. Ibn Sino. Yozishmalar.-Toshkent, 1973.

Ibn Sino. Saralangan falsafiy asarlar.M; 1980

XULOSA

Buyuk faylasuvlar hayoti va ijodi yoritilgan ushbu maqolada Ibn Sino va Jalolidin Rumi hayoti davomida izlanishlar tinimsiz mehnat ilim olishdan to'xmaganliklari uchun shunday buyuk ilim sohibiga aylanishdi bilamizkin hozirki kunda butun dunyo taniydigan bu alloma faylasuflar ilimlarini o'rganish va yosh avlodga bu bilimlarni yetkarib berish orqali shunday yangi Ibin Sinolar , Rumiylar yetishib chiqadi.Hikmatli so'zlar va maqolalar o'ziga xos adabiy janir bo'lib , avvalo ma'naviy –axloqiy tarbiya masalalariga dahildordir. Mazkur Janrga qiziqish kuchliligining boisi shundaki , ular fikrini qisqa va lo'nda ifodalashni talab qiluvchi shiddatli davrimiz ruhiga mos tushadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Haqiqat manzaralari .To'plovchi va tarjimon ;Saida Jo'rayeva.
2. „Yangi asr avlodi“ nashriyot-manba markazi 19.03.2010.
3. Arboblard.uz
4. Uz .m.wikipedion .org.